


**Farg'ona viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi (2018 yil yanvar-noyabr)**


Fargona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar- noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 10226,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,1 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1145,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 38,2 foiz), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 8125,9 mlrd. so'mni o'sish sur'ati 2,1 foiz) hamda uyushmagan savdoda tovar aylanmasi 954,8 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 foizga ortgan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)**




2017 yilning shu davriga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Fargona , Qo'qon, Marg'ilon shaharlari hamda Fargona t ,Quva t, Qoshtepa t ,Oltiariq t, Yozyovon tumanida qayd etildi.

**Chakana savdo  
tovar  
aylanmasining  
o`shish sur`atlari  
(% da)**




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o`rgan yilning mos davriga nisbatan 38,2 foizga o`tdi va 1145,5 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,2 foiz ulushiga to`g`ri keladi.

**Chakana savdo  
tovar aylanmasi  
tarkibi (foizda)  
(2018 yilning  
yanvar–noyabr  
holatiga)**



Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 8125,9 mlrd. so`mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2,1 foizga o`shishga erishdi. viloyat miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 79,5 foizga teng kelmoqda.

*Hududlarda  
kichik  
tadbirkorlik  
sub`ektlarining  
respublika  
chakana savdo  
tovar  
aylanmasidagi  
ulushi (%da)*



2018 yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 2807,2 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 foizga ko`paygan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>2807,2</b>	<b>103,5</b>
<i>shaharlar</i>		
Farg'ona	8301,3	105,2
Qo'qon	4374,3	109,1
Quvasoy	2824,3	100,3
Marg'ilon	3129,7	102,9
<i>tumanlar</i>		
Oltiariq	2040,1	102,0
Qo'shtepa	2610,8	99,9
Bag'dod	1715,0	106,8
Buvayda	1812,5	102,2
Beshariq	1538,0	100,9
Quva	1980,6	103,8
Uchko'prik	1227,8	103,4
Rishton	1595,0	98,7
So'x	2082,8	99,9
Toshloq	1366,2	106,4
O'zbekiston	1084,2	102,7
Farg'ona t	2411,8	101,0
Dang'ara	1398,2	100,5
Furqat	1168,2	103,0
Yozyovon	3815,8	99,6

**Fargona viloyatining ulgurji savdo Tovar aylanmasi (2018 yil yanvar-noyabr)**


**hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari (%da)**

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, viloyatning deyarli barcha hududlarida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan oshgan. Boshqa hududlarga nisbatan ushbu ko`rsatkich Farg'ona shahri (8301,3 ming so`m), Qo`qon shahri (4374,3 ming so`m) va Yozyovon tumanida (3815,8 ming so`m) sezilarli darajada yuqori bo`lgan.

2018 yilning o'tgan davri mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,3 foizni tashkil etib, 190,6 mlrd. so`mga yetdi yoki o'tgan yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan 0,1 foizga o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 96,1 foiz ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Yil boshidan viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2696,1 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 1,7 foizga oshgan.

Ulgurji tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududlarning o'sish sur`atida kamayishi kuzatildi: Farg'ona tumani-33,5 %, Bag'dod tumani – 45,2 %, Kichik korxon va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 1,7 foizga oshdi va 1935,0 mlrd. so`mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 71,8 foizni tashkil qildi.



*Nashr uchun  
mas'ul:  
M.Turg'unova*

**Tel: 71 230-87-18**